



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buguk  
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 28-noyabr, № 252 (8595)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## SAUDIYA ARABISTONI BILAN KENG KO'LAMLI SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH LOYIHALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni Saudiya Arabistoni Podshohligi investitsiyalar vaziri Holid al-Falih boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan Saudiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va keng ko'lami sheriklikni yanada kengaytirish, shu jumladan, oliy darajadagi kelishuvlarni so'zsiz amalga oshirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida investitsiyalar vaziri O'zbekiston yetakchisiga Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud hamda Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yo'lladi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda o'zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

O'zaro savdo ko'rsatkichlari, O'zbekiston iqtisodiyotiga, eng avvalo,

"yashil" energetika sohasiga Saudiyaning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi, aviaqatnovlar soni ortib bormoqda.

Saudiya taraqqiyot fondi ko'magida sog'liqni saqlash, ta'lim, suv ta'minoti va boshqa yo'nalishlarda bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini

kengaytirish bo'yicha qo'shma fond tashkil etilmoqda.

Saudiya delegatsiyasining bu galgi tashrifi doirasida kimyo, energetika, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, IT va infratuzilmani rivojlantirish sohaslarida 12 milliard dollarlik o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Yurtimizning turli hududlaridagi yirik energetika loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, transport infratuzilmasi va kommunal xo'jaligi, geologiya, irrigatsiya, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, oliy ta'lim, mehnat migratsiyasi bo'yicha umumiy qiymati 11 milliard dollarlik yangi loyiha va dasturlarni ilgari surishga kelishib olindi.

O'zbekistonda "yashil" energetikani rivojlantirishda eng katta sarmoyador va strategik hamkor bo'lgan "ACWA Power" kompaniyasi bilan sarmahsul hamkorlik alohida qayd etildi. Bugungi kunda kompaniya bilan birgalikda qiymati 7,5 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sirdaryo viloyatida 1,5 gigavatt quvvatli zamonaviy issiqlik elektr stansiyasining faoliyati hamda Toshkent viloyatida "yashil vodorod"ni "pilot" tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish ishlari boshlanayotganini olqishladi.

Shuningdek, vazir Holid al-Falihni O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi ko'p qirrali va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga qo'shgan katta hisssasi va har tomonlama ko'magi uchun "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati surati.

## YIRIK ENERGETIKA LOYIHALARIGA START BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-noyabr kuni Saudiyaning yetakchi "ACWA Power" kompaniyasi bilan amalga oshirilayotgan loyihalar — Sirdaryo viloyatida 1500 megavatt quvvatli zamonaviy bug'gaz elektr stansiyasini tarmoqqa ulash hamda Toshkent viloyatida "yashil vodorod"ni "pilot" tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishni boshlash marosimida ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, Sirdaryodagi qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi loyihasi 3 milliarddan ziyod xonadon va yuzlab sanoat korxonalarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta'minlashga imkon beradi.

Bundan tashqari, mintaqamizda ilk bor "yashil vodorod" ishlab chiqarish bo'yicha o'xshashi yo'q korxona tashkil etilmoqda. Ushbu "pilot" loyiha doirasida mamlakatimizda birinchi bosqichda 3 ming tonna vodorod ishlab chiqariladi va keyinchalik mineral o'g'itlarga qayta ishlanadi,

shuningdek, 52 megavattlik shamol elektr stansiyasi quriladi.

Umuman, "ACWA Power" kompaniyasi ishtirokida O'zbekistonda 7,5 milliard dollarlik yirik energetika loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalarining ishga tushirilishi 2030-yilga borib 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish, 4,5 milliard kub metr gazni iqtisod qilish va atmosferaga zararli moddalar tashlamalarini 3 million tonnagacha qisqartirish imkonini beradi.

O'ZA.

## O'ZBEK DIPLOMATIYASINING NAVBATDAGI YUTUG'I



UNESCO Bosh konferentsiyasining 42-sessiyasida navbatdagi, 43-sessiyani 2025-yilda Samarqandda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bir qarashda bunday xabarlar yurtdoshlarimiz uchun siyosiy voqealar silsilasining uzviy davomi sifatida talqin etilar. Ammo UNESCO Bosh konferentsiyasining sessiyasi oz emas, ko'p emas, qirg' yilda ilk bor Parij shahridan tashqarida o'tkazilishini inobatga olsak, bu har bir vatandoshimizning qalbini faxrga to'ldirishi, shubhasiz.

3- sahifaga qarang.

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

### KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI FAOLIYATI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATI TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma'lumotlar ko'laminani yanada kengaytirish, ulardan to'siqsiz foydalanishni ta'minlash, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (keyingi o'rinlarda — Milliy kengash), Korrupsiyaga

qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik), Bosh prokuraturaning korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish bo'yicha quyidagi tizimni joriy etish haqidagi taklifi ma'qullansin:

har chorakda Agentlik davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qiladi va ushbu jinoyatlar ko'rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun Agentlik xodimlari ishtirokida ko'rib

chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritib boradi;

har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar Milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib boriladi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2023-yil 1-dekabrden boshlab Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldirilsin: hududlar kesimida "Ha!" tadbiriga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi (ziyoratga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qo'yilgan sana va ro'yxatdagi tartib raqami) ma'lumotlar;

(Davomi 2-betda).



## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq yettinchi yalpi majlisi to'g'risida A X B O R O T

2023-yilning 25-noyabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq yettinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar

parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning qirq yettinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha

sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda intellektual mulk obyektlarining ishonchli huquqiy himoya qilinishini ta'minlashga va sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yurtimizda aholiga professional xizmat ko'rsatadigan ixcham va samarali boshqaruv apparatini yaratish, aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining tutgan o'rni va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining zimmasiga intellektual mulk obyektlarini himoya qilish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida qo'shimcha vazifalar yuklatildi.

2

## 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

### SO'Z ERKINLIGI, HUQUQ VA MAS'ULIYAT

Mamlakatimizda turli jabhalarda olib borilayotgan islohotlar bilan birga, so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va bloggerlarning erkin faoliyatiga doir huquqiy asoslar yanada kuchaytirilmoqda.

Buning samarasini so'nggi to'rt-besh yilda ommaviy axborot vositalari mazmun-mohiyatidagi yangiliklar, ayniqsa, nodavlat internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatidagi faollikda yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Odamlar ishini, o'qishini, xobbilarini, turli tovar va xiz-

matlar logistikasini, qolaversa, davlat xizmatlarini ham internetga "ko'chiriyapti". Bu, o'z navbatida, Konstitutsiya va qonunlarni zamonga hamnafas tarzda o'zgartirishni talab qiladi.

Shu ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 33-moddasi bilan har kim fikrlash, so'z va e'tiqod



erkinligi, har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi belgilab qo'yildi.



## Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

### YANGILANISHLAR JARAYONI QONUN LOYIHALARIDA IFODASINI TOPMOQDA

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi — SPEKA sammitidagi nutqi mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tildi. Shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalarini qizg'in ko'rib chiqildi.

## Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

3

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Senatining  
Axborot xizmati.**

## Fikr

## ISLOHOTLARGA SURʼAT BERISHI KUTILAYOTGAN MASALALAR TAHLIL MARKAZIDA

*Oliy Majlis Senati qirq yettinchi yalpi majlisining ikkinchi kuni ham qizgʻin bahs-munozaralarga boyligi bilan ajralib turdi. Negaki, unda mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlarga yangichsa surʼat berishi kutilayotgan masalalar tahlil markazida boʻldi. Senatorlar ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati hamda yangilanishlar jarayonidagi ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildirdi.*

### Qozogʻiston bilan aloqalarimizni yanada yuqori bosqichga koʻtarishga xizmat qiladi

**Ravshanbek ALIMOV,**  
**Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi:**

— Maʼlumki, keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosati tufayli dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlar, jumladan, qoʻshnilarimiz bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi aloqalarimiz yanada mustahkamlandi. Natijada oʻzaro bordi-keldirlarimiz va hamkorligimiz surʼati oshdi.

Senatorlar tomonidan maʼqullangan “Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasida ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisidagi Shartnomani ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun ham ana shu maqsadga yoʻnaltirilgani bilan eʼtiborga molik. Nomidan ham koʻrinib turibdiki, mazkur qonun Qozogʻiston bilan aloqalarimizni yangi bosqichga koʻtarishga xizmat qiladi.

Mazkur shartnomaning asosiy maqsadi ikki mamlakat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy

xavfliligini va barqaror iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlatlararo munosabatlarning yangi bosqichini shartnoma-huquqiy jihatdan mustahkamlashdan iborat. Ayni chogʻda u tashqi siyosat, mudofaa, xavfsizlik hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, transc hegariy suv resurslaridan oqilona foydalanish boʻyicha qoʻshma chora-tadbirlar koʻrish, parlamentlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari oʻrtasida aloqani mustahkamlash singari sohalarida yaqin hamkorlikni nazarda tutadi.

Ishonamizki, mazkur Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi ikki xalq maʼnaviy-madaniy yaqinligini mustahkamlash, madaniyat, ilm-fan, taʼlim va sport yoʻnalishlarida oʻzaro aloqalarimizni yanada kuchaytirishda huquqiy asos vazifasini oʻtaydi.

### Oilaviy korxonalar rivojida muhim oʻrin tutadi

**Malika QODIRXONOVA,**  
**Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi raisi:**

— Sir emas, keyingi yillarda Oʻzbekistonda aholi bandligini taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, aholi sport bilan shugʻullanishga koʻproq jalb etishga qaratilgan ezgu saʼy-harakatlar olib borilmoqda. Bu amalda qanday samara berayotganini barchamiz koʻrib-bilib turibmiz.

Yalpi majlisda koʻrilgan “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ana shu maqsadga ishlab chiqilgan boʻlib, unda bir qator yangiliklar mavjud. Masalan, yuridik shaxs tashkil etmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlari mehnat shartnomasini tuzgan holda besh nafargacha doimiy xodimni yollash hamda oilaviy korxona ishtirokchisiga bir vaqtning oʻzida boshqa oilaviy korxona ishti-

rokchisi boʻlish huquqini berish koʻzda tutilmoqda, bu ushbu soha rivojida muhim oʻrin tutishini hozirdan tasavvur etish qiyin emas.

Qolaversa, qonun bilan davlat va nodavlat sport-taʼlim tashkilotlari tomonidan oʻz ehtiyojlarini uchun import qilinadigan maxsus sport kiyim-boshlari, poyabzal, sport anjomlari va jihozlari hamda uskunalarining ellik foizi uchun bojxona bojini toʻlashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar beriladi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga mahalliy ijro hokimiyati organlarining shaharsozlik faoliyati obyektlarini qurish toʻgʻrisida qarorlarini imzolash boʻyicha vakolatlari bekor qilinishini nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritilayotganini ham muhim yangilik sifatida keltirish mumkin.

### Amaldagi normalar oʻzgarishlarga moslashtirilmoqda

**Boriy ALIXONOV,**  
**Oliy Majlis Senatining Orolboʻyi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qoʻmitasi raisi:**

— Mamlakatimizda olib borilayotgan institutsional islohotlar uchun huquqiy asosini mustahkamlashni taqozo qilishi oʻz-oʻzidan tushunarli.

Yalpi majlisda maʼqullangan “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublikaga ijro etuvchi hokimiyat organlarining nomlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ana shunday hayotiy zarurat tufayli ishlab chiqildi.

Gap shundaki, institutsional islohotlar doirasida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida, shuningdek, milliy mudofaa sanoati yoʻnalishida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilib, vazirlik va idoralar faoliyatini samarali yuritish boʻyicha ustuvor yoʻnalishlar belgilandi.

Qonun bilan ayrim qonunlar normalari institutsional islohotlar, jumladan, yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirilmogʻda. Ayni chogʻda tugatilgan, qayta tashkil etilgan va tashkiliy boʻysunuvchi oʻzgargan davlat organlari vakolatlari qaysi davlat organlariga oʻtkazilganligi aniqlashtirilayotir.

Xususan, Mudofaa sanoati davlat qoʻmitasi negizida Oʻzbek-

iston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzurida “Oʻztextreyd” DUK tuzilganligi munosabati bilan “Davlat boji toʻgʻrisida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qililish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi qonun hujjatlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritilyapti.

Shuningdek, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qoʻmitasi hamda Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi Qishloq xoʻjaligi vazirligiga oʻtkazildi. Qolaversa, Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Suv xoʻjaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish inspeksiya Suv xoʻjaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya etib qayta nomlandi. Shu munosabat bilan qator qonunlar oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Aytish mumkinki, bu yangilanishlar agrar, suv hamda mudofaa sanoati sohalarining respublika darajasidagi organlari vakolatlari aniqlashtirish va ularda yaxlit tizimni shakllantirishda qoʻl keladi.

**Zokir XUDOYSHUKUROV**  
 (“Xalq soʻzi”) yozib oldi.

# YANGILANISHLAR JARAYONI QONUN LOYIHALARIDA IFODASINI TOPMOQDA

1 Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda respublikada yongʻinlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yongʻin xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, shu orqali aholi hayoti va sogʻligʻi, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli himoyasini taʼminlash imkonini beradigan yongʻin xavfsizligining yaxlit tizimini shakllantirish yuzasidan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maʼlumotlarga koʻra, Favqulodda vaziyatlar vazirligi yongʻin-qutqaruv tuzilmalari tomonidan 2022-yil davomida 3 ming 994 nafar fuqaro favqulodda vaziyatlar va yongʻinlardan qutqarilib, hayoti saqlab qolinishiga erishilgan.

Shu bilan birga, yongʻinlar profilaktikasi sohasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, aholining maishiy hayotida va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yongʻinlar bilan bogʻliq noxush hodisalar roʻy bermoqda.

Taklif etilayotgan qonun loyihasingan qabul qilinishi yongʻin xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish, bunday toifadagi huquqbuzarliklarga doir ishlarni koʻrib chiqish boʻyicha yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokamar davomida fraksiya aʼzolari Nodir Abdullayev va Bahrom Rahmonaliyev qonun loyihasi yuzasidan qator savollarni oʻrtaga tashlashdi. Mutasaddirlar deputatlar tomonidan koʻtarilgan har bir savol boʻyicha asoslantirilgan tushuntirishlar berib oʻtdi.

### Mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari

**Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida Oʻzbekiston rahbarining hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mintaqamamlakatlari duch kelayotgan xavf-xatarlarga eʼtibor qaratgan holda, SPEKA doirasidagi mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish boʻyicha qator amaliy tashabbuslarni ilgari surgani alohida eʼtirof etildi.

Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan mintaqaviy savdoni ragʻbatlantirish, eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, “yashil” iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, transport, logistika, muqobil energetika, “aqli” qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat xavfsizligini, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalaridagi yirik loyihalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan aniq taklif hamda tashabbuslar ilgari surildi.

— Bu yana bir Oʻzbekistonning islohotlar siyosati, dunyo qanchalik notinch boʻlishiga qaramay, tinch va totuvlik, birgalikda rivojlanish maqsadlari asosiga qurilganidan dalolat beradi, — dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov.

Shundan soʻng, deputatlar “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik

toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasini muhokama qildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirish kiritilmoqda. Yaʼni jismoniy va yuridik shaxsga tegishli boʻlgan transport vositalaridan foydalanib, sodir etilgan yoʻl harakati qoidalarini buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali aniqlangan taqdirda, transport vositalarini fuqarolik-huquqiy tartibda foydalanish huquqini olgan hamda ushbu transport vositalaridan foydalanayotgan shaxslarning oʻzlari maʼmuriy javobgarlikka tortilishini belgilash nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun loyihasingan qabul qilinishi ishonchnoma asosida yuridik shaxsga tegishli transport vositalarini boshqarayotgan haqiqiy yoʻl harakati qoidabuzarlarni maʼmuriy javobgarlikka tortish imkonini beradi. Bu orqali transport vositalarini ishonchnoma asosida jaraga berish bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining oʻrinni eʼtirozlar bartaraf etiladi. Shuningdek, ularga ushbu sohada qoʻshimcha qulayliklar yaratilishiga xizmat qiladi.

### Manzilli ishlash tizimida qanday kamchiliklar bor?

**Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida “Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 248-moddasiga ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻlinmalari xodimlarining voyaga yetmaganlar oʻrtasida huquqbuzarliklar hamda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish borasidagi faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamar markazida boʻldi.

Taʼkidlanganidek, hozirgi kunda respublikamizda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik holatlari ortib borayotgani hamda muammoli oʻquvchilar bilan ularning ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash tizimida kamchiliklar mavjud ekani kuzatilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan voyaga yetmaganlar masalalari boʻyicha inspektor-psixologlarning hamda ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi boʻlinmalari xotin-qizlar masalalari boʻyicha (katta) inspektorlarining vakolatlari kengaytirilyapti. Shu maqsadda Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 248-moddasiga qoʻshimchalar kiritilmoqda. Yaʼni voyaga yetmaganlar masalalari boʻyicha inspektor-psixologlarga voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularga taʼlim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaganligi uchun ota-onalar yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslarga nisbatan maʼmuriy jazo qoʻllash

huquqi berilishi nazarda tutilyapti. Shuningdek, xotin-qizlar masalalari boʻyicha inspektorlarga himoya orderi talablarini bajarmaslik uchun nazarda tutilgan maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisida bayonoma tuzish vakolati berilishi kutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasingan qabul qilinishi xotin-qizlar huquqlari himoyasi boʻyicha samaradorlikni oshirishga, profilaktika inspektorlari ish yuklamlarini yengillashtirishga yoʻl ochadi.

Muhokamar davomida qonun loyihasi yuzasidan deputatlar tomonidan qator savollar koʻtarildi. Ayrim normalar borasida asosli takliflar, fikr-mulohazalar bildirildi.

Qonun tashabbuskorlari berilgan savollar boʻyicha tushuntirishlar berib, bildirilgan takliflar qonun loyihasini ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida eʼtiborga olinishini qayd etdi.

### Pensiya tayinlash bilan bogʻliq meʼyorlar aks etmoqda

**Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yigʻilishida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini soʻzsiz amalga oshirish va aholiga davlat xizmati koʻrsatilishini yaxshilashga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi qizgʻin muhokama qilindi. Unda fuqarolarga pensiya tayinlash bilan bogʻliq meʼyorlar oʻrin olgan.

Loyiha bilan “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi va “Fuqarolarning jamgʻarib boriladigan pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi qonunlarga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, pensiyalarning eng kam miqdori eng kam isteʼmol xarajatlardan oz boʻlishi mumkin emasligi belgilanmoqda. Fraksiya aʼzolari bu meʼyor partiya gʻoyalari amalga oshirish kafolatini mustahkamlayotgani, pensionerlarning huquqlari himoyasi kuchaytirilyotganini qayd etishdi.

Shuningdek, loyihadagi ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi pensiyalar rasman belgilangan eng kam isteʼmol xarajatlardan oz boʻlishi mumkin emasligi haqidagi norma ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlandi.

Loyihaga koʻra fuqarolarning Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali pensiya tayinlash uchun murojaat qilish huquqini yaratish, Pensiya jamgʻarmasi tomonidan Xalq bankiga axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan fuqaroning pensionerligi haqidagi maʼlumotlar asosida jamgʻarib boriladigan pensiya tizimidagi toʻlovlarini olish huquqini yaratish nazarda tutilmoqda. Deputatlar bunday tartib

fuqarolarni ortiqcha ovoragarchilik va yugur-yugurlardan himoya qilinishi qayd etib, qonun loyihasini maʼqullashdi.

### Tabiatni muhofaza qilish sohasiga oid vakolatlar yanada takomillashtirilmoqda

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi aʼzolari “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamasida \_eying yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etish va ularning salbiy oqibatlari bartaraf qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilayotganiga eʼtibor qaratdi.

Ekologik partiya tomonidan ham mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yoʻnaltirilgan davlat siyosatini roʻyobga chiqarishni taʼminlash asosiy dasturiy maqsad va vazifalardan biri sifatida belgilab olingan.

Maʼlumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablaridan kelib chiqib, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilgan maʼmuriy islohotlar doirasida Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligiga aylantirildi hamda uning vakolatlari, vazifa va funksiyalari, faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari belgilandi.

Yigʻilishda aytilganidek, muhokama etilgan qonun loyihasi bilan “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunga tegishli oʻzgartirishlar kiritish, xususan, vazirlikning nomi, vazifa va funksiyalarini qonun hujjatlarida belgilash taklif etilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan Oliy Majlis palatalari hamda Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari yanada takomillashtirilmoqda.

Muhokamalarda deputatlar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan qator taklif va tavsiyalar berildi.

Fraksiyalarning yigʻilishlarida koʻrib chiqilgan qonun loyihalari qoʻllab-quvvatlandi. Shu bilan birga, kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

## Investitsiya

## QOʻSHMA KORXONA ISH BOSHLAGI

*Nurobod tumanining Sazagʻon massivida “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi uchun 360 gektar qarovsiz yer maydoni ajratilishi natijasida oʻtgan qisqa davrda qator sanoat korxonalari ishga tushirildi.*

Ayni paytda hududda umumiy qiymati 80 million AQSH dollari boʻlgan 14 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Shu kunga qadar oʻnta istiqbolli loyiha foydalanishga topshirilib, yuzlab ish oʻrinlari yaratildi.

Massivda ishga tushirilgan korxonalar tomonidan joriy yilning oʻn oy davomida 151 milliard soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi hamda 6 million AQSH dollaridan ortiq mahsulotlar eksport qilindi.

Shu kunlarda rossiyalik investorlar ishtirokida yana bir yirik loyiha — oʻsimliklar himoyasi boʻyicha kimyoviy vositalarni ishlab chiqaruvchi yangi qoʻshma korxona faoliyat boshladi.

— Bu yerda zamonaviy texnologiyalar yordamida ellik turdagi kimyoviy vositalar ishlab chiqariladi, — deydi qoʻshma korxona bosh mutaxassisi Ixtiyor Qoʻldoshev. — Mahsulotlar uchta asosiy, bitta yordamchi sexda tayyorlanishi uchun Yevropadan eng soʻnggi avlod texnologiyalari olib kelib oʻrnatildi.

Yangi quvvatning ishga tushirilishi natijasida birinchi bosqichda yuzta ish oʻrni ochildi. Yaqin istiqbolda korxona faoliyatini yanada kengaytirib, qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratish rejalashtirilgan.

**Abdulaziz YOʻLDOSHEV**  
 (“Xalq soʻzi”).

“Xalq soʻzi” va “Narodnoye slovo” gazetalar tahririyati jamoasi tahririyatining sobiq xodimi

**Xushvaqt ABDULLAYEVning** vafoti munosabati bilan marhumning oila aʼzolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.



## SO'Z ERKINLIGI, HUQUQ VA MAS'ULIYAT



Shuningdek, davlat internet-jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yilishi ham mustahkamlandi.

Avvalgi Konstitutsiyada so'z erkinligi, har qanday ma'lumotni izlash, olish va tarqatish huquqi belgilangan bo'lib, internetdan foydalanish huquqi va shartlari nazarda tutilmagan edi.

Bu hali hammasi emas. Asosiy Qonunimizning 33-moddasidagi davlat internetga kirishni ta'minlash uchun sharoit yaratishi mazmunidagi norma davlatning bu borada zarur shart-sharoitlarni yaratish mas'uliyatini kafolatlaydi.

Moddaning mazkur normasi so'z erkinligi va axborot olish imkoniyatini ta'minlash, ushbu jarayonlarni tezlashtirish hamda takomillashtirishga xizmat qilishiga qaratilgan. Ushbu yangi norma bilan har bir shaxsning internet jahon axborot tarmog'iga kirish va undan erkin foydalanish huquqi e'tirof etildi. Bu huquqning ta'minlanishi uchun bevosita davlatning o'zi shart-sharoitlar yaratishi aniq belgilandi.

Internetdan erkin foydalanish huquqi insonning so'z erkinligi huquqi doirasiga kiradi. Ushbu huquq davlat chegaralaridan qat'i nazar, turli axborot va o'yalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini o'zida qamraydi. Shunday ekan, insonlar zimmasiga axborotni internet orqali izlash, olish va tarqatish erkinligidan foydalanuvchi huquqlar bilan bir qatorda majburiyat va mas'uliyat ham yuklanib, qonunga muvofiq ravishda ayrim chekllovlar o'rnatilishi ham tabiiy hol.

Shu ma'noda, 33-moddaning oxirgi bandidagi normalar barchamizni ijtimoiy mas'uliyatni anglashga, oqni qoradan, haqiqatni uydirmadan, dalilni bo'htondan ajratishga da'vat etadi. Huquqiy davlat, demokratik jamiyat rivojining muhim shartlari hisoblangan inson erkinligini ta'minlashni mustahkam, adolati qonunchilik bilan kafolatlash — Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishining asosiy sabablaridan biridir.

Fuqarolarning so'z erkinligi Asosiy Qonunda kafolatlangani, uni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi mamlakatimizda so'zning yuksak qadrlanishidan dalolatdir.

**Durdona RASULMUHAMEDOVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti.

## 20 MILLION DOLLARDAN ORTIQ EKSPORT SHARTNOMALARI IMZOLANDI

*"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va mamlakatimiz to'qimachilik korxonalari vakillaridan iborat O'zbekiston delegatsiyasi Varshava shahridagi "Ptak Warsaw Expo" markazida bo'lib o'tgan "Fast Textile — 2023" xalqaro to'qimachilik ko'rgazmasida ishtirok etdi.*

### Hamkorlik

Bu yilgi tadbirda 45 mamlakatdan 600 dan ortiq kompaniyalar vakillari qatnashdi. Ushbu ko'rgazmada mamlakatimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari "Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida 400 kvadrat metr maydonda taqdim qilindi.

Ta'kidlash kerakki, Polshada o'zbek to'qimachilik mahsulotlariga talab oshib borayotir. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, ko'rgazma davomida O'zbekiston to'qimachilik korxonalari vakillari xorijiy sheriklar bilan 20 million dollardan ortiq eksport shartnomalarini imzolashdi.

Tashrif doirasida O'zbekiston delegatsiyasi mamlakatimizning Varshavadagi elchixonasida o'tkazilgan biznes-forumda, Lodz shahrida bo'lib o'tgan o'zbek to'qimachilik shoxobchasining ochilish marosimida va boshqa tadbirlarda ishtirok etdi.

Jumladan, Polshaning Lodz shahridagi "Ptak Fashion City" savdo markazida Andijon viloyatida

joylashgan "MT Textile" to'qimachilik kompaniyasiga qarashli "Milana" savdo shoxobchasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning Polshadagi elchixonasi va Lodz shahri jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Ushbu savdo mashkanida bugungi kunda mazkur korxona tomonidan Polshaga va Yevropaning boshqa mamlakatlariga eksport qilinayotgan tayyor trikotaj mahsulotlaridan namunalarni namoyish etildi.

Savdo shoxobchasining tani tanali ochilish marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston elchisi Amir-said Agzamxodjayev savdo-iqtisodiy va investitsiya sohaslarida O'zbekiston — Polsha hamkorligining bugungi holati va istiqbollari, shuningdek, Yevropa bozoriga to'qimachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirish vazifalari haqidagi ma'lumotlarni iztirokchilar e'tiboriga havola qildi.

Safar davomida, shuningdek, O'zbekiston va Polsha to'qimachilik

mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari ishtirokida mamlakatimiz elchixonasida biznes-forum o'tkazildi.

Yig'ilganlar e'tibori O'zbekiston va Polsha o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va turizm sohaslarida hamkorlikning bugungi holati hamda istiqbollari, xususan, yaqinda ochiladigan Toshkent va Varshava o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ahamiyatiga qaratildi.

Elchixona tomonidan o'tkazilgan taqdimotda Yevropa Ittifoqining "GSP+" tartibi natijasida 2022-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 40 foizga o'sib, 345 million AQSH dollarini tashkil qilgan qayd etildi.

Tadbirda so'zga chiqqan "Polsha — Osiyo" savdo palatasi prezidenti Yanush Pexochinskining aytishicha, Polshada O'zbekistondagi jadal o'zgarishlar va rivojlanish jarayonini diqqat bilan kuzatishmoqda.

— Respublikani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha kompleks dastur Polsha tadbirkorlari bilan hamkorlikni kengaytirish uchun ajoyib imkoniyat, bu ikkala tomon uchun ham foydali, — dedi u. — Polsha biznesi uchun yaxshi istiqbolli mamlakat — O'zbekiston

bilan yaqin hamkorlik qilish vaqti keldi. O'zbek eksportchilari Yevropa bozoriga umumiy qiymati 4 milliard yevro bo'lgan 500 nomdagi sanoat tovarlarini yetkazib berishga tayyor ekanini olqishlayman. Ikki mamlakat o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlikning ishga solinmagan imkoniyatlari ham ko'p.

Tadbir doirasida "G2B" va "B2B" formatidagi muzokaralar tashkil etildi. Ularda qator qo'shma dastur va loyihalarini amalga oshirish bo'yicha aniq kelishuvlarga erishildi.

Biznes-forum yakunida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va Polshadagi eng yirik ko'rgazmalar markazi — "Targi Kielce" o'rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi. Tomonlar 2024-yil may oyida Polshaning Kelse shahrida xalqaro to'qimachilik ko'rgazmasini o'tkazishga kelishib oldi.

Ta'kidlash kerakki, o'zbek to'qimachilik mahsulotlari Varshava va Lodz shaharlarida joylashgan to'rtta to'qimachilik savdo uyi orqali sotiladi. Joriy yilning yanvar — oktabr oylarida Polshaga mamlakatimizdan 60 million dollar miqdoridagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi.

**"Dunyo" AA,**  
Varshava

### G'afur G'ulom tavalludining 120-yilligi

## ASARLARIDA XALQIMIZ O'ZLIGI VA G'URURI IFODALANGAN

*Poytaxtimizda O'zbekiston xalq shoiri, jamoat va davlat arbobi G'afur G'ulom tavalludining 120-yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi. Unda taniqli adiblar, ilm-fan, madaniyat va san'at namoyandalari, ijodkorlar, talabalar, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.*

Tadbir avvalida G'afur G'ulom haqidagi hujjatli film namoyish etildi.

Kechada mamlakatimizda adabiy islohotlar yanada rivojlanayotgani, G'afur G'ulom qoldirgan adabiy merosni chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgani, asarlarining mohiyati haqida so'z yuritildi.

— G'afur G'ulom hammamiz uchun sevimli adib edi, yurtimizda uning asarlari kirib bormagan xonadon kam topiladi, —

deydi G'afur G'ulom uy-muzeyi direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Olmosxon G'ulomova. — Ijodkorning she'riyati va nasrida xalqimiz tarixi, o'zligi, iftixori badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalari, qissalarni o'zida jamlagan. Shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va

boshqalarning asarlaridan o'zbekchaga qilgan mohirona tarjimalari adabiyot muhblarining qalbidan chuqur joy egallagan.

Kechada shoir she'rlaridan, tarjimalaridan namunalar o'qildi. Monitorida adib asarlari asosida suratga olingan "Shum bola", "Yodgor" filmlaridan parchalar namoyish etildi. Shuningdek, G'afur G'ulom she'rlariga bastalangan qo'shiqlar davraga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Shoir tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar yurtimizning barcha hududida davom etmoqda.

**Rahmatjon BOBOJONOV**  
("Xalq so'zi").

REKLAMA

# BANKKA BORMAY, XIZMATLARIDAN FOYDALANING

*Har bir mamlakatning taraqqiyot sur'atini jadallashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar muhim omilga aylanmoqda. Raqamlashtirish hayotimizning barcha sohasi, jumladan, moliya sektoriga ham jadal kirib bormoqda. Bunda, ayniqsa, mobil telefonlarning har yangi avlodi bilan yanada kengayib borayotgan texnik imkoniyatlar va innovatsion yechimlar muhim rol o'ynayotir.*

## HAMKORBANK

BIRGALIKDA YUKSALISH SARI

Odatda, bunday innovatsion yechimlarni birinchilardan bo'lib moliya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar, pul o'tkazmalari operatorlari va banklar o'z ish faoliyatiga tatbiq qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham bank sohasidagi raqamli transformatsiyaning bir qismi sifatida mobil ilovalarni mijozlar uchun universal moliyaviy yechimlar to'plami

sifatida rivojlantirish va masofadan turib taqdim etiladigan xizmatlarni yo'lga qo'yish jadal kengaydi. "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki ham ana shunday o'zgarishlarni o'z biznes modeliga tatbiq qilib, mijozlarga qulaylik yaratayotir. Ushbu moliya muassasasining "HamkorLab" — raqamli ofisi tomonidan ishlab chiqilgan "Hamkor" ilovasi ana shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Ilovani yaratishdan maqsad mijozlarning kundalik bank xizmatidan bankka bormasdan foydalanishini yo'lga qo'yishdan iborat. Yangi ilova dizayn va ishlatish qulayligi, xavfsizligi jihatdan barcha talabga javob beradi.

Ilovaning bosh ekranida kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan bank xizmatlari joylashtirilgan. Bu xizmatlar sirasiga onlayn mikroqarzni rasmiylashtirish, joriy valyutalar kursi va uni ayirboshlash, kommunal va boshqa xizmatlar uchun pul to'lash, ochilgan bank kartalarini boshqarish, filiallar va bankomatlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Bularning barchasi ilovadan foydalanishni nafaqat qulay holga keltiradi, balki qimmatli ma'lumotlar ham beradi.

Mobil ilovadagi valyuta ayirboshlash kursi filiallardagi kursdan ko'ra foydaliroq. Shu sababdan "Hamkorbank" mijozlari "Hamkor" ilovasi yordamida konvertatsiya qilishda nafaqat pul, balki vaqtini ham tejashga erishishlari mumkin.

Shuningdek, "Hamkor" mobil ilovasida jismoniy shaxslar kartalariga oyiga 5 000 000 so'mgacha foizsiz pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ya'ni bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilar do'stlari va yaqinlariga ertiqcha foiz va xarajatsiz pul o'tkazmalarini amalga oshirishlari mumkin.

"Hamkor" mobil ilovasi har bir tranzaksiyadan keyin avtomatik ravishda to'lov cheklarini shakllantirish imkonini beradi. Ya'ni pul o'tkazmalarini amalga oshirishda yoki ilova orqali xizmatlarni to'lashda foydalanuvchilar komissiya miqdori bo'yicha fiskal chekni shakllantirib, shaxsiy hisobotlari uchun saqlashlari

mumkin. Ushbu chekda pul o'tkazmasi yoki to'lov miqdori, tranzaksiya sanasi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga o'z xarajatlarni kuzatib borish imkonini beradi. Barcha hisobot har doim "Hamkor" ilovasida barqaror holda saqlanib qoladi.

Yuqorida qayd etilgan qulayliklardan tashqari ilovada quyidagi qo'shimcha

xizmat turlari mavjud:

Shaxsiy kredit kabinet. Bu kabinet orqali siz kredit ID raqamingizni bilish va kredit shartnomangiz nusxasini yuklab olishingiz mumkin.

Joriy valyutalar kursi. Dollar va boshqa valyutalar joriy kursini kuzatib borish hamda ilovaning o'zida uning konvertatsiyasini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Bank kartasining PIN-kodini o'zgartirish. Asosiy ekranda PIN-kodi o'rnatilmagan kartalar ham ko'rsatiladi. Siz bu funksional orqali "Kartalar" bo'limida aks etgan kartangiz PIN-kodini o'rnatishingiz yoki almashtirishingiz mumkin.

Qolaversa, banklarda ko'p hollarda eng ko'p navbatga turiladigan va filiallarda rasmiylashtirishi uchun vaqt talab qiladigan xalqaro pul o'tkazmasini qabul qilib olish qulayligi yaratilgan. Endilikda ilova foydalanuvchilari "Zolotaya Korona" xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali dunyoning turli mamlakatlardan pulni o'ziga qulay joy va vaqtda qabul qilib olishlari mumkin.

Bank mijozlarning talab va ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish uchun "Hamkor" ilovasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida jadal ishlar olib borilmoqda. Kelgusida, ilovaga yangi imkoniyatlar qo'shish va xizmatlar turini oshirish orqali dasturlarning funksional imkoniyatlari kengaytiriladi. Jumladan, xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish borasida ishlar olib borilmoqda. Masalan, "VISA", "Union Pay" yoki "SWIFT" tizimi orqali xalqaro pul o'tkazmalarini to'g'ridan-to'g'ri "Hamkor" ilovasida qabul qilishni tatbiq etish rejalashtirilgan. Ilovaning kelgusidagi holati va bank rejalari haqida shuni aytilish kerakki, mazkur moliya tashkiloti mijozlarga

Valyuta ayirboshlash

Qayerdan

507 300 UZS

3200 HIMO

Qayerga

0.00 \$

3164 VISA VISA Virtual

0 UZS

0 \$

Kurs: 1 \$ = 12 320.00 UZS

O'tkazish

Asosiy

To'lov

O'tkazmalar Ayirboshlash

Servislar

kutilganidan ko'proq imkoniyatlarni taklif qilishga tayyor.

Qisqacha aytganda, mazkur bank uchun moliya sektorini raqamlashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishda ishonchilik, qulaylik yaratish va innovatsiyalarga keng yo'l ochishdir. Moliyaviy barqarorlikka erishishda "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat bankining raqamli moliyaviy yechimlari sizga ishonchli hamkor bo'la oladi.

**Bank axborot xizmati.**

*Xizmatlar litsenziyalangan.*

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



**"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.10 Topshirildi — 00.30

1 2 3 4 5 6

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshekurov.  
Musahhih S. Islomov.